

M U N D A R I J A:

Kirish.....2

I .Bob. O`zbekistonda real sektorni moliyaviy qo`llab-quvvatlashda banklarning iqtisodiy ahamiyati

1.1. O`zbekistonda real sektorni rivojlantirishda bank tizimi va uning mohiyati.....5

1.2. Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasini shakllantirish.....

1.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda tijorat banklari faoliyatining asosiy yo`nalishlari.....

II BOB. Tijorat banklarining faoliyati va moliyalash tizimi tahlili

2.1. “Mikrokreditbank” moliyaviy faoliyati tahlili.....

2.2. Bank tizimini rivojlantirishda kredit salohiyati va kredit berish tartibi.....

III. BOB. Bankning inveqtitsion siyosatini mustahkamlashning ustuvor yo`nalishlari

3.1. Bank resurslarini tadqiq qilish va ularni moliyalashda investitsiyalar rolini kuchaytirish

3.2. Tijorat bankti faoliyatini takomillashtirish istiqbollari.....

Xulosa va takliflar.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....

K i r i s h

Bozor munosabatlarining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish zahirida iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro bank tizimi talablariga mos keluvchi mahalliy banklar faoliyatini tashkil qilish va ular faoliyatini yanada takomillashtirish shu kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Jamiyat yaxshi taraqqiy qilgan bank tizimi va banklar faoliyatiga ega bo'lmasdan sog'lom taraqqiy qilishi mumkin emas. Iqtisodiyotni samarali boshqarish uning muhim sub'ekti bo'lgan banklar faoliyatini o'rganishni, ularning ishlash usullari, funktsiya va operatsiyalarini bilishni taqazo qiladi.

Bank maxsus muassasa sifatida o'ziga xos bo'lgan funktsiya va operatsiyalarni bajaradi. U bajaradigan bu funktsiya va operatsiyalar banklar faoliyatining qator boshqa bozor munosabat sub'ektlari faoliyatidan ajralib turshiga asos hisoblanadi.

Banklarning ish predmeti bo'lib pul mablag'lari hisoblanib, ular bozor munosabatining boshqa sub'ektlari faoliyatida yuzaga keladigan pul munosabatlarining amalga oshirilishida vositachi sifatida maydonga chiqadilar.

Bank bozor munosabatlarining boshqa sub'ektlaridan farqli o'laroq pul bilan ishlovchi, vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini o'zida yig'uvchi, uni pul zarur bo'lgan sub'ektlarga vaqtincha foydalanishga berib turuvchi va bu pul mablag'larini samarali ishlatish asosida o'z faoliyatini olib boruvchi muassasa hisoblanadi.

Bank ishini qonun va qoidalar asosida aniq va samarali olib borish nafaqat bank faoliyatini samarali qiladi, balki butun jamiyatining ravnaq topishiga, iqtisodiyotning rivojlanishiga va jamiyat a'zolarining boyishiga olib keladi. Odatda iqtisodiyotning holati banklar faoliyati bilan aniqlanadi.

Banklar iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi organ hisoblanib moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilish va olib borishda vositachi sifatida, kapital aylanishining uzluksizligini ta'minlash, bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni pul zarur bo'lgan sub'ektlar o'rtasida taqsimlash bo'yicha faoliyat olib boradi.

Banklar faoliyatining boshqa sub'ektlardan farqli yana bir tomoni shundaki, ular asosan jalb qilingan mablag'larga tayanib ishlaydilar. Bu esa o'z navbatida bank ishining risklilik darajasini oshiradi. Chunki bank bir tomondan unga o'z

jamg'armalarini ishonib topshirgan yuridik va jismoniy shaxslar oldida majburiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan bank o'z aktsiyadorlari oldida majburiyatga ega. SHu sabab banklar mablag'larni doimo iqtisod qilib ish olib boradilar.

Hozirgi kunda ham bank faoliyati ko'lam, mijozlari va operatsiya turlari ko'paygan bo'lsada, aynan bankka tegishli bo'lgan yuqoridagi xususiyatlar saqlanib qolgan va yanada mustahkamlanmoqda. Banklar oldingi banklardan ko'ra ilg'or, yangi shakllarda va yangi texnologiyalarda iqtisodiyotning talablariga mos keluvchi operatsiyalar qo'llash orqali faoliyat olib bormoqdalar.

Jahon amaliyotida banklar mijozlarga 300 dan ortiq turli operatsiyalarni tavsiya qiladilar. O'zbekiston Respublikasida ham bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilish borayotgan shu bosqichda asosiy maqsad banklarimiz faoliyatini xalqaro bank amaliyoti andozalariga yaqinlashtirishdan, banklarning kapitalini ko'paytirgan holda, ularni xususiylashtirish, banklar faoliyatida yangi zamonaviy texnologiyalar qo'llash va umuman banklar faoliyatining samaradorligi orqali iqtisodiyotning samaradorligi va barqarorligiga erishishdan iborat.¹

Shu sababli tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish borasida tadqiqotlar olib borish bugungi kunda o'ta dolzarb bo'lib hisoblanadi. Bitiruv ishining maqsadi bank larning moliyaviy resurslarini boshqarish borasida amaliy ishlarni olib borishdan iborat. Shu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi va hal etildi:

- Tijorat banklari moliyaviy mablag'larini shakllantirishning nazariy asoslari o'rganildi.
- Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasini shakllantirish jarayonlari ochib berildi.
- Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda bank siyosatining ahamiyati ko'rsatib o'tildi.
- DAT "Mikrokreditbank" i faoliyatini baholash
- Buxoro viloyati DAT "Mikrokreditbank"i moliyaviy resurslar holatining tahlili.

¹ Каримов И.А. Асосий вазифамиз - ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришди.-Тошкент: «Ўзбекистон» 2010 й, -36 бет

- Respublika tijorat banklari moliyaviy mablag`larini boshqarishni takomillashtirish yullari bo`yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida tahlil etilgan mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi, vazifalari va tarkibi yoritilgan.

Ishning birinchi bobida tijorat banklari moliyaviy mablag`larini shakllantirishning nazariy asoslari o`rganildi. Ishning ikkinchi bobida modernizatsiya sharoitida DAT "Mikrokreditbank" faoliyatining moliyaviy barqarorligi tahlil qilinib, tijorat banklari faoliyatini moliyaviy barqarorligini oshirish yo`llarini takomillashtirish bo`yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishning xulosa va takliflar qismida tadqiqot ishini bajarish jarayonida shakllantirilgan xulosalar va ishlab chiqilgan amaliy takliflar umumlashgan holda ifoda etgan.

I .Bob. O`zbekistonda real sektorni moliyaviy qo`llab-quvvatlashda banklarning iqtisodiy ahamiyati

1.1.O`zbekistonda real sektorni rivojlantirishda bank tizimi va uning mohiyati

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo`lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o`sish sur`atlariga erishish respublikamiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta`minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa, eng avvalo iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur bo`ladi.

Iqtisodiyotning real sektori - iqtisodiyotning bevosita moddiy ne`matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko`rsatish bilan bog`liq sohasi bo`lib, u o`z ichiga sanoat, qishloq xo`jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko`rsatish tarmoqlarini oladi. SHu sababli, mustaqillik yillaridan hozirga qadar real sektorni rivojlantirish maqsadida qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Amalga oshirilgan mulkiy, moliyaviy va tarkibiy islohotlar shular jumlasidandir.

Qolaversa, milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali amal qilishini ta`minlash, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari taraqqiyoti darajasiga olib chiqish, turli siyosiy va iqtisodiy o`zgarishlar, jahon bozori kon`nkturasidagi tebranishlar, inqiroz holatlariga nisbatan «chidamliligi», mustaqil rivojlana olish imkoniyat va salohiyatlari aynan iqtisodiyot turli darajalari ishlab chiqarish jarayonlaridagi tub islohotlar va ularning natijalariga bog`liqdir. Mamlakatimizda chuqur o`zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur`atlar bilan rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta`minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo`nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarning ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Ayni paytda, bosib o`tilgan yo`l – oldingi davrdagi erishilgan yutuq va natijalarni tanqidiy baholash orqali tegishli xulosalar chiqarish, ular asosida

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini yanada takomillashtirib borish ham muhim printsiptial ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari, boshqa xo`jalik sub`ektlari kabi o`zining xo`jalik va tijorat faoliyatini ta`minlash uchun ma`lum miqdorda pul mablag`lariga, ya`ni resurslariga ega bo`lishlari lozim.

Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Buni shunday izohlash mumkin, ya`ni iqtisodiyotning bozor modeliga o`tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatiladi, ikki bosqichli bank tizimini shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o`zgaradi.

Undan tashqari, uning aktiv operatsiyalari ob`ekti orqali aniqlanadigan bank faoliyatining ko`lami, ular joylashtiradigan resurslar hajmi, miqdori, jalb qilingan mablag`lar summasiga bog`liq bo`ladi. Bunday holat resurslarni jalb qilish bo`yicha banklar o`rtasida raqobatni keltirib chiqaradi.

Bankning asosiy vazifalaridan biri bo`sh pul mablag`larini mumkin qadar ko`proq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat.

Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi. Bank resurslarini ikki katta guruhga bo`lish mumkin. Bular, banklarning o`z mablag`lari va jalb qilingan mablag`lardir. Jalb qilingan resurslarni ba`zi hollarda ikkiga bo`lib qaraladi

– bu jalb qilingan depozitlar, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurlardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya`ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi.

Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o`zaro chambarchas bog`liq bo`lganligi sababli passivlarning tarkibi va xarakteri ko`p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o`z ifodasini topadi.


Shu bilan birga resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o`zgarishi ham ta`sir kiladi. Bank resurlarining asosiy qismini bank mijozlarining

mablag`lari tashkil kiladi. Bank boshqa kapitallarni jalb qilish uchun o`z kapitalining etarli darajasi miqdorini ko`rsatish lozim.

Tijorat banki o`z mijozlarining bo`sh turgan mablag`larini qarzga olish bilan bir vaqtning o`zida bu mablag`larni o`z vaqtida qaytarilishini ta`minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo`lishi kerak.

Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo`lib, ular aholining bo`sh turgan pul mablag`larining bankka sari oqimini ta`minlaydi. Resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, kreditlar berish salohiyati to`lovlar amalga oshiriladi, banklarning daromadlari vujudga keltiriladi. Bank resurslarining aylanishini quyidagicha ifodalash mumkin.

1.1. 1-rasm. Bank resurslarining aylanishi.



SHunday qilib, bankning o`z mablag`lari va qarzga olingan yoki sotib olingan mablag`lari yigindisi - tijorat banklarning resurs bazasini tashkil qiladi.

Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga o`z kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi:

- yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisob varaqalaridan qoldiqlari;
- bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlar;
- olingan banklararo kreditlar;
- bank vakil tomonidan ochilgan «loro» depozit va valyuta hisob varaqasidagi mablag`lar va boshqa manbalar.

Bankning o`z mablag`lariga ustav fond (kapital) rezerv fondi va bank foydasi hisobiga tashkil topadigan bank fondlari, hamda yil davomida taqsimlanmagan foyda


kiradi. Amaliyotda bank passivlarining 20 foizi banklarning o'z mablag'lariga to'g'ri keladi. Bankning o'z mablag'lari ichida asosiy o'rinni ustav kapitali egallaydi.

Bankning ustav kapitali – bu bank ishini tashkil qilishning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi. Bank o'z kapitali «O'z mablag'i» tushunchasi – keng ma'noli, u o'z ichiga bankning ichki faoliyati jarayonida tashkil topgan hamma passivlarni (bankning ustav, rezerv va boshqa fondlari, bank tashkil qilgandagi hamma rezervlarni, taqsimlanmagan foyda va joriy yil foydasini) oladi. Bankning o'z kapitali bu hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadigan kattalik. U iqtisodiy ma'nosiga ko'ra bank kapitali funktsiyalarini bajaradigan o'zlik mablag'larni ichiga oladi.

Bankning o'z kapitali – bank vaqtincha jalb qilgan qarz mablag'laridan farqli o'laroq, bevosita bankning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'lardir. Bank kapitalining boshqa korxonalar kapitalidan farqi shundaki, bankning o'z kapitali aylanma mablag'larining 10 foizini, korxonalarda esa u taxminan 40-50 va undan ortiq foizni tashkil qiladi. Bank kapitaliga bankning o'z mablag'larining asosiy elementlari kiradi, ya'ni qonunchilikka muvofiq tashkil topgan asosiy fondlar, bank faoliyatini ta'minlash maqsadida ichki manbalar hisobiga tashkil topgan rezervlar kiradi.

Bankning o'z kapitali deganda, bankning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga qaratilgan maxsus tashkil qilinadigan fond va rezervlarni tushunishimiz kerak. Bank kapitaliga ustav kapitali, rezerv kapitali, ta'sis foydasi, bank ixtiyorida qoldirilgan o'tgan va joriy yilda taqsimlanmagan foydasi, turli risklarni qoplash uchun tashkil qilingan rezervlar kiradi va u bank faoliyatida muhim funktsiyalarni bajaradi.

Bank kapitali klasifikatsiyasi.



1.1.2-rasm. Bank kapitali klasifikatsiyasi.

Bank kapitali I va II darajali kapitaldan iborat bo`lib, I darajali kapital quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- a) to`liq to`langan va muomalaga kiritilgan oddiy aktsiyalar;
- b) nokumulyativ imtiyozli aktsiyalar. Bu aktsiyalar muayyan sotib olish sanasi va shartlariga, egasining xohishiga ko`ra sotib olinish imkoniyatiga ega emas.

Bank aktsiyadorlarining umumiy yig`ilishi qaroriga muvofiq, ular bo`yicha dividendlar to`lanmasligi mumkin.

- v) qo`shimcha kapital – oddiy va imtiyozli aktsiyalar bozor narxining ularning nominal qiymatidan oshib ketishi;

g) taqsimlanmagan foyda ;

1) kapital zaxiralar;

2) avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi;

3) joriy yil zararlari.

d) aktsiya egalari kamchiligining birlashgan korxonalar aktsiyadorlik

hisob varaqalarida o`lishi. Bu ulush shu`ba korxonalari hisob varaqalari bank moliyaviy hisobotlarida birlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi.

II darajali kapital quyidagilardan iborat:

a) joriy yildagi sof foyda;

b) riskni hisobga olgan holda aktivlar summasining 125 foizi va hisob-

kitoblardan so`ng II darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdoridagi umumiy zahiralar. Nokumulyativ muddatli imtiyozli aktsiyalar.

Bu aktsiyalar muayyan sotib olish sanasi va shartlariga, egasining xohishiga ko`ra sotib olinish imkoniyatiga ega emas. Bank aktsiyadorlarining umumiy yig`ilishi qaroriga muvofiq, ular bo`yicha dividendlar to`lanmasligi mumkin.

v) hisob-kitoblardan so`ng II darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar.

g) subordinar qarz bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo`lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so`ng I darajali kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak. II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz to`lash muddati etib

kelgunga qadar oxirgi 5 yil davomida yiliga 30 foizga kamayib borishi shart. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarzlar garov ta'minotiga ega bo'lmisligi, bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo'yicha talablar depozitlar talablari qondirilganidan so'ng amalga oshirilishi, boshlang'ich to'lov muddati 5 yildan ortiq bo'lishi lozim.

Rezerv kapitali – bankning umumiy va maxsus maqsadlari uchun (masalan, devalvatsiya uchun zaxira, trust operatsiyalari buyicha biznes uchun zaxira, ko'zda tutilmagan xarajatlar, tabiiy ofatlar natijasidagi zararlar uchun zaxira va boshqa maqsadlar uchun) yaratgan zaxirasining hisobi 30903-30906 balans hisob varaqalari olib boriladi. Ushbu zaxira taqsimlanmagan foydasi hisobiga tashkil etiladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan so'ng sof foyda hisobiga shakllangan zahiralaridir. Ushbu zahiralariga ajratiladigan chegirmalar miqdori ochiq e'lon kilinadigan hisobotda ko'rsatilishi lozim. Zahiradan bank faoliyatida vujudga keladigan turli zararlarni ular yuzaga kelishi bilanoq hech qanday cheklashlarsiz qoplash uchun foydalaniladi.

Bundan mazkur zaxiralar hisobiga qoplanadigan barcha zararlar foyda va zararlar hisobida aks ettiriladi. 30903 – umumiy zaxira fondi bo'lib, bu hisobvarag'i bankning taqsimlanmagan foydasi hisobidan umumiy maqsadlar (masalan, bank faoliyatini kengaytirish, bank uchun zaruriy vositalarni sotib olish va ko'zda tutilmagan xarajatlar, tabiiy ofatlar natijasidagi zararlar uchun va hokazo) uchun tashkil etgan zahirasi hisobini yuritish uchun mo'ljallangan. 30906-Devalvatsiya uchun zaxira bo'lib, bu hisobvaraqda milliy valyutaning devalvatsiyasi natijasida ko'rishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun yaratilgan zaxiraning hisobi yuritiladi. Ushbu zaxira mablag'lari bankning taqsimlanmagan foydasining ma'lum qismidan va valyutadagi bank aktivining ustav kapitaliga tegishli ekvivalentini qayta baholash natijasida hisoblangan mablag'lardan tashkil topgan.

Maxsus zaxiralar-«Standart», «Substandart», «Shubhali» va «Umidsiz» deb tasniflangan kredit va lizing operatsiyalari yoki boshqa alohida muayyan aktivlar buyicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun zaxira tashkil qilinadi.

Taqsimlanmagan foyda. Bu hisobvarag`i bankning butun faoliyati davomida olgan foydasining taqsimlanmagan qismi hisobini yuritish uchun mo`ljallangan. O`z ichiga quyidagi hisobraqamlarni oladi: yillik, sof foyda; boshlang`ich qiymatiga nisbatan qayta baholanganda qo`shimcha qiymat, 31206-yillik sof foyda. Bu hisobvarag`i hisobot yilida bank faoliyatining moliyaviy natijalari bo`yicha yillik foyda yoki zararlari hisobini olib borish uchun mo`ljallangan. Ushbu hisobvarag`i bankning yillik hisoboti topshirilgandan so`ng yopiladi. Agar bank moliyaviy hisobot yakunlariga ko`ra foyda bilan chiqsa, ushbu hisobraqam kredit qoldiq bilan yopiladi.

Bankning o`z mablag`larini er, bino, inshoot, jihozlarni qoplash uchun moliyaviy rezervlarni shakllantirishga ajratishni o`z ichiga oladi. Bu moliyaviy resurslar manbai bank ishi faoliyatining bosqichlarida, ta`sischilar bilan bir qatorda birinchi navbatdagi xarajatlarni amalga oshirishlarida juda keraklidir.

Bank rivojlanishining keyingi bosqichlarida bank kapitalining roli muhim bo`lib, bu mablag`larning bir qismi to`g`ri rezervlarni tashkil qilish uchun uzoq muddatli aktivlarga sarflanadi. Shunday qilib, bankning moliyaviy resurslari bank faoliyatining asosini tashkil qiladi.

1.2. Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasini shakllantirish.

Tijorat banklarning daromadlari va ularning manbalarini bank faoliyatiga qarab, ya`ni tijorat banklari amalga oshiradigan operatsiyalar nuqtai nazaridan klassifikatsiya qilish mumkin. Tijorat banklarining daromadi bank faoliyatining kredit berish, diskont faoliyati, trast (ishonch) xizmati ko`rsatish, banklarning kafolatlash faoliyati, qimmatli qog`ozlar bilan operatsiyalardepozitlarni qabul qilish va ularning hisobini yuritish bilan bog`liq faoliyat, boshqa banklar bilan vakillik munosabatlariga asoslangan faoliyat, noan`anaviy xizmatlar ko`rsatish bilan bog`liq faoliyat va boshqa faoliyat turlari natijasida shakllanadi.

O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarining daromadlari ular bajaradigan operatsiyalaridan oladi, eng avvalo, bank oladigan daromadbo`lib uning kredit operatsiyasi hisoblanadi. Tijorat banklari mijozlarga ma`lum muddatga qat`iy

belgilangan foizlarda kredit beradi. Bank bundan tashqari aholiga ko'rsatadigan xizmatlar uchun haq oladi.

Bank muassasalarining asosiy ish printsipli kamroq xarajat qilib, ko'proq daromad olish hamda moliyaviy natijalar yakunida maksimal foyda olish hisoblanadi. Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa o'z navbatida banklar faoliyatini doimiylikiga asos hisoblanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklarining resurslarini tashkil qilish jarayoniga katta ahamiyat beriladi. SHu sabab o'tish iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan deyarli barcha mamlakatlarda tijorat banklari resurslarini shakllantirish tizimida tubdan o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlarning bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi. Bular:

- banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta'minlanishi va bu, o'z navbatida, kredit riskini kamaytirganligi;
- iqtisodiyotda to'lovsizlik muammosining mavjudligi va kredit qaytarilmasligi oqibatida tijorat banklarining zarar ko'rish imkoniyatining oshishi;
- aholi qo'lidagi omonatlarining o'sishi;
- korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining etarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalardir

Banklarda mavjud bo'lgan mablag'lardan foydalanish imkoniyatiga qarab bank resurslari o'z resurslariga va qarz (sotib olingan) resurslarga bo'linadi. Bu holda banklar resurslariga bank kapitalidan tashqari ma'lum vaqt davomida bank ixtiyorida bo'lgan jalb kilingan depozitlarni, boshqa banklarning depozitidan va vakillik hisobraqamidan qoldiqlarni, forvard valyuta kursi va kliring bo'yicha qoldiqlarni va boshqa depozitlar va qoldiqlarni ham kiritish mumkin. Undan tashqari, bankning ixtiyorida mavjud bo'lgan resurslar uning amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan aktiv operatsiyalar uchun etarli bo'lmasa, zarur miqdordagi mablag'larni Markaziy bankdan nobyudjet fondlardan pul bozoridan sotib olish yoki qarzga olish mumkin.

Shunday qilib, bankning o'z mablag'lari va qarzga olingan yoki sotib olingan mablag'lari yigindisi tijorat banklarning mmoliyaviy resurs bazasini tashkil kiladi.

Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga o'z kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi:

- ➔ yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisob varaqalaridan qoldiqlari;
- ➔ bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlar;
- ➔ olingan banklararo kreditlar;
- ➔ bank vakil tomonidan ochilgan «loro» depozit va valyuta hisob varaqasidagi mablag`lar va boshqa manbalar.

Bankning o'z mablag`lari uning faoliyatining asosini tashkil qiladi, chunki ular jalb qilayotgan depozitlar, ya'ni real kredit resurslari hajmini pirovard natijada aktiv amaliyotlar hajmini belgilab beradi. Bankning o'z mablag`lari tijorat banklarining faoliyatini boshqaruvchi va ular ustidan nazoratni amalga oshiruvchi Markaziy bank uchun muhim ma'lumot manbai hisoblanadi.

Bankning o'z mablag`lariga ustav fond (kapital) rezerv fondi va bank foydasi hisobiga tashkil topadigan bank fondlari, hamda yil davomida taqsimlanmagan foyda kiradi. Amaliyotda bank passivlarining 20 foizi banklarning o'z mablag`lariga to'g'ri keladi. Bankning o'z mablag`lari ichida asosiy o'rinni ustav kapitali egallaydi.

Bankning ustav kapitali – bu bank ishini tashkil qilishning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi.

Markaziy bankning me'yoriy talablariga muvofiq bank kapitali asosiy (birinchi daraja kapital) va qo'shimcha (ikkinchi daraja) kapitalidan iborat. Birinchi daraja kapital hisob-kitob qilingan kapital yig'indisining 50 foizidan kam bo'lmasligi lozim. Tartibga solish funksiyasini asosan, birinchi daraja kapital bajaradi, chunki u doimiyroq hisoblanadi.

Bank kapitali uning faoliyat yuritish chegaralarini belgilab beradi, investorlar hamda aktsiyadorlar va qolaversa, bankning o'zi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy barqarorlik darajasini ko'rsatib beradi.

Bankning tashkil topish shakliga qarab, ustav shakllantirilishi turlicha bo'ladi. Agar bank aktsionerlik jamiyati ko'rinishida shakllanayotgan bo'lsa,

ustav fondi aktsiyalarining nominal qiymati ko`rinishida tashkil topadi. Bunda aktsiyalar ochiq obuna qilish yo`li bilan yoki ta'sischilarning ustav fondidagi ulushlariga qarab tarqatilishi mumkin.

Agar bank ma'suliyati cheklangan jamiyat ko`rinishida tuzilgan bo`lsa, ustav fondi ulushlarga bo`lingan holda bo`ladi. Ularning hajmi ta'sis hujjatlari bilan aniqlanadi. Bunda bank ishtirokchilari o`zlarining ulushlari me'yori chegarasida majburiyatlarni o`z zimmalariga oladilar.

Bankning tashkiliy – huquqiy shakliga qaramay, uning ustav fondi huquqiy va jismoniy shaxslarning to`lovlari orqali shakllanadi va ta'sischilarning majburiyatlarini bajarish uchun xizmat qiladi. Ustav fondi faqat bank ishtirokchilarining xususiy mablag`lari hisobiga tashkil topishi mumkin. Jalb qilingan kredit, garovga olingan, boshqa yo`llar bilan jalb qilingan mablag`lar hisobidan ustav fondini shakllantirishga yo`l qo`yilmaydi. Bankning ustav fondi faqat pul mablag`lari va moddiy aktivlar hisobiga tashkil topishi mumkin.

Respublika byudjeti mablag`lari, davlat nobyudjet fondlari mablag`lari va O`zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv va mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoridagi bo`sh pul mablag`lari va boshqa ob`ektlar banklarning ustav kapitali shakllanishida qatnashmaydi. qonunda ko`rsatilgan xolatlarda bank ustav kapitalini shakllantirish uchun byudjet mablag`laridan foydalanish mumkin.

Agar aktsiyadorlar ustav kapitalini shakllantirishda qarz mablag`idan foydalansa, ustav fondiga qo`shilgan mablag` aktsiyadorga qaytarib beriladi va aktsiyalar kelgusida sotish uchun bankka qaytariladi. Tashkil etilayotgan bank kapitalini eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Markaziy bank faoliyat shartlari, biznes-rejada ko`rsatilgan operatsiyalar turi va hajmiga qarab, bank ustav kapitali miqdoriga qo`shimcha talablar qo`yish mumkin.

Tashkil etilayotgan bank kapitalining etarlilik darajasini belgilashda quyidagi asosiy talablarga rioya qilinadi.

- Markaziy bank belgilagan ustav kapitalining eng kam miqdori yuzasidan talablarga muvofiqligi;
- Ko`zda tutilayotgan o`sishni qo`llab - quvvatlash darajasi;

- Ko`zda tutilayotgan daromadlar va asosiy foizlar darajasi;
- Muassislarning zarur hollarda qo`shimcha kapitallar kiritish qobiliyati va boshqalar.

Faoliyat ko`rsatayotgan banklar ustav kapitaliga talablar iqtisodiy ahvol va bankning moliyaviy holatidan kelib chiqib markaziy bank tomonidan belgilanadi. Bank ustav kapitali miqdorini o`zgarishi va o`zgarishni ro`yxatga olish tartibi Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi.

Banklarni ustav kapitalining minimal miqdorini belgilanishi banklarni har xil risklardan saqlash maqsadida belgilanadi. Chunki bank ustav fondi qancha katta bo`lsa, uning resurslari ham ko`p bo`ladi.

O`zbekiston Respublikasi xududida o`z shu`ba bankini ochish yoki bu erdagi bank ustav kapitalida ishtirok qilish istagini bildirgan norezident bank ustav kapitali 30 mln. AQSH dollari ekvivalentiga teng summadan kam bo`lmasligi kerak. Bankning tashkiliy shakliga qarab, ustav kapitali oshishi mumkin.

Aksionerlik jamiyati ko`rinishidagi tijorat banklar o`z ustav kapitalini oshirishlari uchun qo`shimcha miqdorda aksiyalar chiqarishlari va ularni yuridik va jismoniy shaxslar orasida tarqatishi mumkin. qo`shimcha mablag`larni jalb qilishda bu banklarga o`z qarz majburiyatlari – obligatsiyalar chiqarish xuquqi berilgan. Obligatsiyalar barcha aksiyalar to`la to`lanib bo`lgach, ustav fondining 20% dan oshmaydigan qiymati hajmida chiqarilishi mumkin.

Har yili har bir bank aksioneri (ishtirokchisi) o`zining ustav kapitalidagi ulushiga mos ravishda bank foydasining bir qismini dividend ko`rinishida oladi. Dividendlar hajmi va uni hisoblash tartibi aktsiya turi va chiqarilishi shartlariga bog`liq bo`ladi (oddiy yoki imtiyozli aksiyalar).

Tijorat banklari aktiv operatsiyalari natijasi bo`lmish rezerv fondlar bank etarli foyda olmagan paytda bank obligatsiyalari bo`yicha foiz bo`lib xizmat qiladi. Rezerv fond foydadan ajratmalar hisobiga shakllanadi.

Rezerv fond bilan bir qatorda tijorat banklarda ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish fondlari foyda hisobiga tashkil topish mumkin. Ularni shakllantirish va ishlatish tartibi tijorat hisob-kitoblari to`g`risidagi bank yo`riqnomalarida belgilanadi.

Bankning mijozlari oldidagi majburiyatlarini ta'minlash – bank mablag'larining asosiy funktsiyasi bo'lib hisoblanadi. Ularga o'z majburiyatlari bo'yicha javobgarlikni ta'minlovchi kattalik sifatida qaralishi mumkin. Bank amaliyotida kapital resurslarni yo'qotish natijasida zarar ko'rilganda bank to'lov qobiliyatini saqlab qolish uchun resurslar rezerv bo'lib hisoblanadi. Chunki bank kapitali aksionerlarga qaytarilmasligi ham mumkin. Bankning o'z resurslari miqdori uning faoliyat qo'lamiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki mablag'lari hajmidan kelib chiqadi. Bankning o'z mablag'lari uning moddiy bazasini rivojlantirish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Bank amaliyotida o'z kapitalning netto va brutto turlari farqlanadi. Bankning o'z kapitali – brutto – bankning barcha fondlari va balans bo'yicha taqsimlanmagan foydasi yig'indisiga teng. Bankning o'z kapitali – netto – bu kapital bruttodan o'z mablag'laridan kapital harajatlarning oshgan qismini, yo'l qo'yilgan va potentsial zararlar, sotib olingan xususiy aksiyalar va muddati 30 kundan ortiq bo'lgan debitor qarzlarni chegirib tashlangandan qolgan summaga teng. Shunday qilib, kapital – netto

naqd mavjud bo'lgan bank o'z kapitalini o'zida aks ettiradi.

Tijorat bankning o'z kapitali miqdori ko'pgina omillarga bog'liq bo'ladi. Bu omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risidagi qonunga muvofiq, bankning o'z kapitali hajmi uning aktiv operatsiyalarini chegaraviy hajmini belgilab beradi.

Ikkinchidan, bank uchun zarur bo'lgan o'zlik kapitalining miqdorining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Mayda, lekin son jihatdan ko'pchilikni yirik kredit oluvchi korxonalarni tashkil qiluvchi bankda o'z mablag'lari nisbatan ko'p miqdorda kerak bo'ladi. Chunki yirik mijozlarga xizmat qiluvchi banklarda kreditning qaytarilmaslik riski katta bo'ladi.

Uchinchidan, tijorat bankining o'z kapitali miqdori, uning aktiv operatsiyalari xarakteriga bog'liq bo'ladi. Bank olib borayotgan operatsiyalari katta risklar bilan bog'liq bo'lishi, o'z mablag'larining nisbatan ko'p bo'lishini taqozo etadi. Bu hol,

xususan, innovatsion banklarga tegishlidir. Bank kapitali hajmini aniqlayotganda banklar bu mablag`lar olinadigan foyda miqdorini aniqlanmasligini ham e`tiborga olishadi.

To`rtinchidan, bankning zaruriy xususiy kapital miqdori kredit resurslari bozorining rivojlanganlik darajasiga va O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki olib borayotgan pul-kredit siyosatiga bog`liq.

Rivojlangan bozor sharoitida O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining erkinlashtirilgan kredit siyosatini olib borishga yo`l ochib berishi natijasida tijorat bankining kredit resurslariga talabini qondirish osonlashadi va bankning zaruriy o`z mablag`lari darajasi kamayadi. etarli darajada moliya bozorining rivojlanmaganligi, siyosatining qattiq qo`lligi banklarning o`z mablag`larini doimiy tarzda oshirishni talab etadi.

Banklarning o`z mablag`lari miqdorini oshirishda 2-usul ishlatilishi mumkin:

- qo`shimcha aktsiyalar chiqarish va ularni joylashtirish yoki
- chiqarilgan aktsiyalarning nominal qiymatini oshirish. Birinchi usul bilan foydani jamg`arish bankning rezerv va boshqa fondlarini jadallashtirilgan tarzda shakllantirish va ularni keyinchalik kapitalga aylantirish shaklida ro`y beradi. Bunda yil oxirigacha foydaning bir qismi to`g`ri kapitalga aylanishi ham mumkin. Bu usul ancha arzon, yangi paychilar jalb qilish yoki aktsiya chiqarish borasidagi qo`shimcha harajatlarni talab etmaydi. Lekin foydani jamg`arish joriy yilda aktsionerlarga to`lanadigan dividendlar miqdorini kamayishiga olib keladi. Bu esa bankning bozorda tutgan mavqeiga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin. Bankning ustav kapitali aktsiyalar nominal qiymatini pasaytirish yoki aktsiyalar umumiy sonini qisqartirish, jumladan, keyinchalik ularni to`lash sharti bilan sotib olish orqali kamaytirilishi mumkin.

Bank faoliyati asosan 2 ta asosiy moliyaviy hisobotlar, ya`ni buxgalteriya balansi hamda foyda va zararlar to`g`risidagi moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish orqali yakunlanadi.

Bankning daromadlilik, birinchi navbatda xarajatlarni kamaytirishga bog`liq.

Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar, boshqalar bir xil sharoitda ishlasada, joriy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Odatda, banklar o'z zimmasiga operatsiya xarajatlari, ustama foizlarga ketgan mablag'lar, shuningdek, kredit riski bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun ajratmalarni oladilar. Bank operatsiya xarajatlarini aniqlash oson emas. Chunki, ular bank mahsulining keng turlarini aks ettiradi.

Banklar o'z faoliyatida 2 ta vazifani bajaradi. Bular:

-vositachilik, ya'ni kredit berish va olish;

-mijozlarga xizmat ko'rsatish, axborotlar tahlili, marketing va boshqalar.

Bank passivlarini va o'z mablag'larini daromad transformatsiyalash nuqtai nazaridan, bankning birinchi vazifasini ham ishlab chiqarish jarayoni sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Foizli daromadlar an'anaviy tarzda o'z ichiga barcha aktivlar bo'yicha olingan ustama foizlar va komission to'lovlarni olsa, foizli xarajatlar – barcha majburiyatlar bo'yicha to'langan foizlar summasi aks ettiriladi.

Foizlar to'lovi bo'yicha umumiy xarajatlar barcha mablag'lar manbalari, ya'ni omonat hisoblaridan tortib to veksellar hamda aktsiyadorlik obligatsiyalariga sarflanadigan foizli sarf-xarajatlargacha o'z ichiga oladi.

So'nggi paytlarda anchagina ahamiyati ortib borayotgan foizli daromadlarga turli bank xizmatlari uchun ajratiladigan komissiyalar (hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar, trast operatsiyalar va hokazolar) yoki bir vaqtning o'zida imzolanadigan bitimlardan keladigan daromadlar (filiallarni sotish va hokazolar) kirsa, foizsiz xarajatlarga maoshlar va qo'shimcha to'lovlar, uskuna yoki binolarni ijaraga olish, xarid qilish, shuningdek, boshqa operatsiya xarajatlari kiradi.

Moliyaviy jihatdan barqaror banklardagi xarajatlar tarkibi quyidagi ko'rinishda bo'ladi: ish haqi va mukofotlar – 20 foiz, bino va uskunalar uchun xarajatlar – 5 foiz, boshqa xarajatlar – 10 foiz. Odatda, bank daromadlarining 2/3 qismi foizli xarajatlarga, berilgan ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga, soliqlarni to'lashga, kutilayotgan foydaga va sarmoyaning o'sishiga sarflanadi.² Bankning sof foizli

² Абдуллаева Ш.З. Банк иши. Т.: “Молия” 2005, -102 бет

foydasi uning vositachilik faoliyatini aks ettirsa, sof foizsiz foydasi uning ishlab chiqarish rolini namoyon etadi. Sof foizli foydadan ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplovchi mablag'larni ajratgan holda, biz ssudalardagi yo'qotish xarajatlaridan tashqari hisoblangan sof foydaga ega bo'lamiz. Bundan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, bank xarajatlari hisoba tizimida 3 ta umumiy operatsiyalar xarajatlari ko'rinishi mavjud: bular – foizlar to'lovi xarajatlar, ssudalardan yo'qotishlarni qoplash uchun rezerv xarajatlar va foizsiz xarajatlar.

Yuqoridagi xarajatlar bilan bog'liq tarzda 3 xil risklar mavjud, ya'ni foizlar, kredit va operatsiyalarning samaradorlik risklaridir.

Foizlar bo'yicha risklarni nazorat qilish qobiliyati banklardagi yuqori ish samaradorligining eng muhim tomoni hisoblanadi. Agar passivlardagi depozitlar ulushi, tashqi omillar belgilanadigan kreditlar sifati va foiz stavkalari aniq bo'lsa, biz foizsiz xarajatlar tarkibi hamda ularning bank faoliyatiga ta'sirini ham aniqlashimiz mumkin bo'ladi.

Bank ishi samaradorligi uzviy bog'liq bo'lgan xarajatlarni nazorat qilishning yoki kamaytirishning uch asosiy yo'nalishi mavjud:

- ❖ asosiy kapitalga investitsiyalarni kamaytirish;
- ❖ ortiqcha (qo'shimcha) chiqimlar va boshqa belgilanmagan xarajatlarni («boshqa xarajatlar»); shuningdek,
- ❖ xodimlarga ketadigan xarajatlarni nazorat qilish. Dastlabki ikki yo'nalish bino, uskunalar va hokazolar bo'yicha xarajatlarni kamaytirishni ko'zda tutadi. Uchinchi yo'nalish jiddiy holatlarda qo'llanilib, bo'limlarni yopish, xizmatchilarni qisqartirish choralari ko'riladi. Lekin bunda mehnatga haq darajasi saqlanib qoladi.

Xarajatlarga likvidlilik singari har qanday ustama foiz o'zgarishlari, passivlar tarkibi va xususiy kapital hajmi ta'sir qiladi. O'z navbatida, bank xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar aktivlar daromadlilikiga ham o'zgarishlar kiritishni talab qiladi. Xarajatlarni baholashga kreditlar ustama foizlarini belgilashning asosiy omili sifatida qarash kerak. Jami portfel bo'yicha o'rtacha foizlar hajmi umumiy sarf summasini to'lanmagan passivlar o'rtacha summasining foizlar to'loviga taqsimlanib, bir so'm qarzdorlik xarajatlarning o'rtacha foiz ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Shunday qilib, har qanday daromad chakana ustama narx sifatida belgilanadi. Bunda kelajakda xarajatlarning ko'payishi yoki kamayishini taxmin qilish asosiy qiyinchilik hisoblanadi. SHu sababli, belgilangan stavkalar bo'yicha ssudalar raqobatbardosh bo'lishi uchun juda yuqori hisoblanishi mumkin. Bunday xarajatlardan foydalanish foiz stavkalari belgilangan tarixiy muddat davomida bir xil darajada saqlanib qolishi ko'zda tutiladi. Narxlar bo'yicha qarorlar xarajatlarning yakuniy, aniq hajmiga (aniq daromadlarga nisbatan) asoslangan bo'lishi lozim.

1.3. Tijorat banklari real sektor korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash omili sifatida.

O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga asosan bank – Bu tijorat muassasi bo'lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'larni jalb qilish va ularni o'z nomidan, to'lovlilik, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarni va boshqa bank operatsiyalarni bajaradi.

Tijorat banklarning iqtisodiy ahamiyati uning faoliyat doirasining keng bo'lishiga olib keladi.

Tijorat banklarni quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi.

1. Vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish.
2. Korxona, tashkilotlar, davlat va aholini kreditlash.
3. Muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari)ni chiqarish.
4. Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish.
5. Moliya – valyuta bozorga faoliyat ko'rsatish.
6. Iqtisodiy – moliyaviy axborotlar berish va konsultatsiya xizmatlarni ko'rsatish.

Banklar bo'sh pul mablag'larni yig'ish va ularni kapital aylantirish funksiyasini bajara turib mavjud bo'sh pul daromadlari va jamg'armalarini yig'adi. Jamg'aruvchi (bo'sh pul mablag'lari egasi) o'z mablag'larini bankga ishonib topshirgani uchun va bank bu mablag'lardan foydalangani uchun ma'lum foiz

hisobida daromad oladilar. Bo'sh pul mablag'lari hisobidan ssuda kapitali fondi vujudga keladi va bu fond xalq xo'jaligi tarmoqlarini kreditlash uchun ishlatiladi.

Tijorat banklari faoliyatida asosiy o'rinni korxona, tashkilotlarni, aholini, kreditlash egallaydi. Kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank moliyaviy vositachi vazifasini o'taydi. U bo'sh turgan mablag'larni jalb qiladi va o'z nomidan mijozlarga vaqtincha foydalanishga beradi. Bank krediti hisobidan xalq xo'jaligining muhim tarmoqlari – sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqalar moliyalashtiriladi va ishlab chiqarishni kengaytirishga asos bo'ladi.

Muomalaga kredit pullarini chiqarish funktsiyasi tijorat banklarini boshqa moliya institutlaridan ajratib turadi. Tijorat banklari depozit – kredit emissiya qilganida, ssudalar berganida pul massasi oshadi va ssuda bankga qaytarilganda muomalada pul massasi kamayadi.

Tijorat banklari kredit pullarni yaratishning emitenti hisoblanadi. Tijorat bank tomonidan mijozga berilgan kredit uning hisob raqamiga o'tkaziladi va bankning qarz majburiyati ortadi. Mijoz bu mablag'larning ma'lum qismini naqt pul shaklida hisob raqamidan olishi mumkin. Bu holda muomalada pul massasining miqdori oshadi. SHuning uchun ham tijorat banklar faoliyati ustidan Markaziy bank nazorat olib boradi.

Tijorat banklarning muhim funktsiyalaridan biri hisob-kitoblarni olib borishdir. Hisob-kitoblarni olib borishda bank mijozlar o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlar chiqarish hamda ularni joylashtirish bilan shug'ullanishi mumkin va iqtisodiy ahvolni nazorat qila borib mijozlarga har xil axborotlar, maslahatlar berishi mumkin.

Tijorat banklari asosan quyidagi operatsiyalarni bajaradi:


- passiv operatsiyalar;
- aktiv ssuda operatsiyalar;
- bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;
- bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalar va boshqalar.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning turli sohalariga yo`naltirilayotgan kredit resurslari muhim ahamiyatga ega. Ular tomonidan iqtisodiyot bog`inlarining moliyaviy qo`llab-quvvatlanishi, istiqbolli loyihalarni amalga oshirilishi, qat'iy pul kredit siyosatini yuritilishi mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikning muhim omilidir. Bank tizimini mustahkamligini taminlash va faoliyatni iqtisodiy islohotlarga hamohang ravishda tashkil etish iqtisodiyot rivojlanishida muhim o`rin tutadi.

Kredit takror ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi va ijtimoiy ishlab chiqarishning uzluksizligini taminlaydi. Korxonalarga berilayotgan kredit ularni vaqtinchalik moliyaviy resurslarga bo`lgan ehtiyojni qondiradi va takror ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz davom etishini taminlaydi. Xo`jalik yurutuvchi subyektlarning pul mablag`lariga bo`lgan ehtiyoji ishlab chiqarishning faqat mavsumiyligi bo`lmasdan balki, ishlab chiqarish hajmi, xo`jalik pul mablag`larining aylanish darajasi va shu kabi ko`plab omillarga bog`liq.

SHuningdek, Respublikamizda tijorat banklarini kreditlash jarayonlarini yanada kengaytirish maqsadida ko`plab ishlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram Prezidentimizning 2010 yil 26 noyabrdagi 1438-sonli qarori birinchi ilovasining 4-yo`nalishi tijorat banklarning investitsion faoligini, ular tomonidan ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash, modernizatsiyalash bo`yicha loyihalarni kreditlash hajmlarini kengaytirishga bag`ishlangan. Unga ko`ra 2011-2015 yillarda tijorat banklari tomonidan korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash bo`yicha investitsiyaviy loyihalarni va iqtisodiyotning real sektor tarmoqlarni kreditlash hajmini 2.8 martaga oshirish rejalashtirilgan va tijorat banklarini kreditlash jarayonlarini takomilashtirish bo`yicha bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilishi ko`zga tutilgan. Ayni paytda, respublikamizda real sektor korxonalarini rivojlantirishda tijorat banklari faolligini oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan va u quyidagi rasmda o`z ifodasini topgan:

O`zbekistonda real sektor korxonalarini rivojlantirishda tijorat banklari faolligini oshirish mexanizmlari³



1.1.3 – rasm. O`zbekistonda real sektor korxonalarini rivojlantirishda tijorat banklari faolligini oshirish mexanizmlari

Biroq, aytish joizki, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotini kreditlash jarayonida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlariga qaramasdan, bu sohaga hali ham o'z yechimini topmagan muammolar borligini rad eta olmaymiz. Hususan, rivojlangan mamlakatlarda kreditning birlamchi taminoti hisoblangan mijozning moliyaviy holatini ko'rsatuvchi ma'lumotlariga bank tomonidan ishonchning pastligi, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarning obyektiv emasligi, bu muammolarning yechimi sifatida quydagi takliflarni bermoqchimiz, mijozlarning bank faoliyatiga bo'lgan ishonchini ta'minlash maqsadida PR (public relations) ya'ni, xalq bilan ishlovchi guruhlarini tashkil etish va joylarda targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish, xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy hisobotlarni tayyorlash ustidan nazoratini kuchaytirish va davlat soliq, statistika organlari va

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг «Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир» ҳамда «Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир» номли маърузаларини ўрганиш бўйича Ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент: Иқтисодиёт. – 2010 йил. – 194 бет.

tijorat banklarini uzviy bog`liqligini ta'minlovchi tizimini joriy etish, chekka hududlarda ham bank konsalting xizmatlarni tashkil etish va mavjudlarni esa ko`lamini kengaytirish kabilardir.

Yuqoridagidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini yildan-yilga rivojlantirish va takomilashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu vazifalarni to`la-to`kis bajarilishi iqtisodiyotimizda yangi ishlab chiqarish korxonalarini va ularda yangi ish o`rinlarini yaratib, nafaqat mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga balki xalq farovonligining ta'minlanishiga va turmush darajasini oshishiga xizmat qiladi.

II BOB. Tijorat banklarining faoliyati va moliyalash tizimi tahlili

2.1. AT “Mikrokreditbank” moliyaviy faoliyati tahlili

“Mikrokreditbank”i Respublika iqtisodiyoti tuzilmalarini tubdan o’zgartirish, bank tizimini isloh qilish va liberallashtirish orasidagi barcha jarayonlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Bugungi kunda bankning asosiy e’tibori axborot texnologiyalari asosida ishlab chiqilayotgan innovatsion mahsulotlarga qaratilmoqda. Ana shunday mahsulotlar asosida “Internet bankning”, SMS bankning, “Bank-mijoz” shuningdek turli shart sharoitlarga ega xalqaro pul jo’natmalari, xalqaro VISA plastic kartochkalari keng tarqalmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash joizki bank tomonidan ishlab chiqarilayotgan xizmatlar “Bank expo-2013” bank texnologiyalari, uskunalri va xizmatlari ko’rgazmasida yuqori baholangan va “Eng yaxshi texnik jihozlangan bank” deb e’tirof etilgan.

«Mikrokreditbank» mamlakatdagi 4 yirik bank. U asosan sanoat sektoriga (neft, gaz, kimyo sanoati) xizmat ko’rsatadi. 2013 yilning 1-yanvar holatiga ko’ra, bankning jami capital 183,3 mlrd sumni, nizom jamg’armasi esa 123,7 mlrd sumni tashkil qildi. Jami kredit qoyilmalari 1 trln 424 mlrd sumdan oshib, umumiy aktivlar hajmi 2 trln sumga ten bo’ldi. Bugungi kunda “Mikrokreditbank”ning 43 ta filiali, 100 ga yaqin mini banki, 174 ta jamg’arma, 150 ga yaqin maxsus kassasi va boshqa shoxobchalari ishlab turibdi.

Hisobod davriga ko’ra, bank tomonidan 21 ta sanoat qurulish korxonasiga 326,6 mlrd sum ekvivalentda xorijiy valyutada kredit mablag’lari ajratildi. Bundan tashqari bank mavjud korxonalar faoliyatini zamonaviylashtirish maqsadida ularni texnik va texnologik jihatidan qayta jihozlash uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etmoqda. Ma’lumki bank sanoatning neft-gaz, kimyo, mashinasozlik, issiqlik energetikasi, suv resurslari ta’minot xavf yirik tarmoqlardagi loyihalarni moliyalashtirish bilan bir qatorda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ham qo’llab quvvatlab kelmoqda. Muassasasining 2013 yilda kichik biznes sub’ektlariga ajratgan kreditlar hajmi 228,1

mlrd sumni, shu asosida yaratilgan ishchi o'rinlari soni 6 mingga yaqinini tashkil qildi.

“Mikrokreditbank” naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini takomillashtirishda faol ishtirok etib kelmoqda. Mazku muassasa birinchilar qatorida plastic kartochkalar muomalasini amalga oshirib, u orqali chakana xizmat ko'rsatishni yo'lga qoygan, VISA xalqaro assotsatsiyasiga a'zo bo'lgan. Hozirgi kunda bank 840 ming dan ortiq “Visa electron” hamda “Visa klassik” plastic kartochkalarni muomalaga chiqarib, joylarga jami 4239 ta, jumladan, savdo shoxobchalariga 3973 ta jamg'arma kassa va minibanklariga 229 ta terminal hamda 20 donadan ortiq bankomat o'rnatgan. Ayni paytda bank tomonidan 1mln dan ortiq mijozlarga 50 ziyod an'anaviy va zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatilmoqda.

Jahonning nufuzli “Fifch Rating” hamda “Standart \$ Poor's” xalqaro reyting agentliklari “Mikrokreditbank” faoliyatini tahlil qilib, uni istiqbolli va ishonchli, barqaror moliya muassasasi sifatida e'tirof etadi. Bank joriy “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili”da ham O'zbekiston Respublikasiurs ba'zasini yanada mustahkamlab, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ulushuni bundanda oshirishni maqsad qilgan.

“Mikrokreditbank” ochiq aksiyadorlik tijorat banki plastic kartochkalari asosida naqd pulsiz to'lovlar tizimini yanada rivojlantirish maqsadida aholi e'tiboriga VISA xalqaro to'lov vositasi boyicha yangi xizmat turini taqdim etmoqda.

Muassasa joriy qilgan ushbu xizmat VISA Gold deb nomlanuvchi xalqaro plastic kartochkalarda mavjud standart imkoniyatlaridan tashqari, chegirma, bonus kabi qulay va sifatli xizmat turi sifatida bir qato imtiyozlarga ega.

“Mikrokreditbank” OATB “VISA International Servise Association” kompaniyasi ko'magi ostida VISA Gold mahsulotlari muomilaga chiqargani munosabati bilan 1-apreldan 30-iyunga daqar mamlakatimiz hududida ushbu turdagi kartochka egalarini rag'batlantirish maqsadida rpo-aksiya o'tkazmoqda.

Aksiya mamlakatimizning barcha aholisi ishtirok etishi mumkin. Bosh sovringa davogar bo'lish uchun “O'zsanoatqurulish bankning” VISA Gold plastic kartochkasi boyicha hisobvaraqa ochirib, bir va undan ortiq hisob-kitob amaliyotlarini amlaga

o'shish lozim. Taqdirlashning qo'shimcha shartlari esa mijozdan faqatgina ushbu plastic kartochkaga ega bo'lishni talab qiladi. Qayd etish joiz, VISA Gold asosidagi to'lovlarni Internet tar'mog'I orqali hamda butun dunyo boylab savdo servis korximalrida amalga oshirish mumkin.

“Ahbor-Reyting” agentli 2009 yil natijalariga ko'ra, “Mikrokreditbank” ochiq aksiyadorlik tijorat bankining kredit reytingi “uzA+” milliy shkalasi boyicha barqaror prognozi bilan tasdiqladi.

Mazkur reyting bankning yuqori darajada kredit qobiliyatiga egaligini va uning faoliyatida kredit xatarini pastligini bildiradi. “uzA+” reytingiga ega bank kreditorlar, depozitorlar hamda investorlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida va butkul bajara oladi.

“Mikrokreditbank” reytingi bankning davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi, bozordagi o'rni kuchli ekanligi, aktivlarning sifati yaxshiligi, barqaror likvid pozitsiyasi va adekvat kapitallashuvini shuningdek moliyaviy ko'rsatkichlari ijobiyligi anglatadi. Shuningdek, reyting aktivlar o'sishi va ular bilan bog'liq xarajatlar, bank biznesining sohaviy va mijozlarga oid konsentratsiyasi, o'sish strategiyasi va yangi aktivlar soyib olish bilan bog'liq ehtimoliy xatarlarni ham e'tiborga olgan. “O'zsanoatqurilishbank” davlat ishtirokidagi bank bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyotining bazaviy sohalarida korporativ sektor faoliyatining moliyaviy ta'minlanishida muhim o'rin tutadi. Bu borada bank capital investitsiyalar o'tkazish uchun uzoq muddatli kreditlar orqali yordam bermoqda.

“Ahbor-Reyting” agentligi “Mikrokreditbank” biznesi hamda bank sektoridagi hissasi barqaror o'sayotganini qayd etadi. Jumladan, 2014 yil oxiriga kelib bank aktivlari 2015 yil bilan solishtirganda 11.11%ga o'sdi va 1,57 trln so'mni tashkil etdi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, 2015 yilning 9-oyi mobaynida bank aktivlari 10%ga o'sdi va 2013 yil oktabr holatiga 1.73 trln so'm, xususan, kredit portfeli 1,29 trln so'mga yetdi. Bankning sof foydasi avvalgi yil bilan taqqoslaganda 2.5 baravarga kamaydi va 2014 yil oxirida 5978,6 mln so'mni tashkil etdi. Ammo 2015 yilning 9-oyi yakunlariga ko'ra sof foyda sezilarli darajada o'sgan.

Kreditlash hajmining jadal o'sishiga qaramay, bank krediti portfeli sifatining yaxshi saqlanib qolayotgani muhim reyting omili sifatida xizmat qilmoqda. 2012 yil hisobotiga ko'ra "Mikrokreditbank" asosan yoqilg'I enrgetika sanoatiga (64,94%), transport (11.52%), savdo va oziq-ovqat kompaniyalariga (8.10%) kredit mablag'lari ajratgan.


Ko'rib chiqilayotgan davrda zayom fondlash bazasi asosan qisqa muddatli bo'ldi. 2014 yil oxiriga kelib jami zayom fondlashda mijozlar hisoblari 84,95 % tashkil etdi. Bank yomonidan jalb qilingan barcha mablag'larda jismoniy shaxslarning ulushi 21,8%ga yetdi. "Ahbor-Reyting" agentligi fikricha zayom fondlash bazasining qisqa muddatli bo'lishi vabunda yirik pozitsiyalarning saqlanib qolishiga qaramay, davlat tomonidan qo'llab quvvatlash va tashqi qarz imkoniyatlari kengligi tufayli "Mikrokreditbank"ning fondlash borasidagi moslashuvining boshqa banklariga nisbatan yuqoridir.

Bankning likvid va aktivlari darajasi yetarli darajada yuqori-17.6% shuningdek, "Mikrokreditbank"ning likvid pozitsiyasi yaxshi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda bank kapitalining adekvadlik ko'rsatishini maqbul deyish mumkin. 2014 yil yakunlariga ko'ra, bankning o'z kapitali avvalgi yilning shu davriga nisbatan 2.68% ga, jumladan aksiyadorlik kapitali 9.33%ga o'sdi. Capital yetarliligi koeffisienti 11.6% ni, I-darajali capital yetarliligi koeffisienti ham 11.6%ni tashkil qildi.

2015 yil 1-oktabr holatiga ko'ra, "Mikrokreditbank" asosiy ko'rsatkichlari boyicha mamlaktimizdagi eng yirik 5 ta banklar qatoriga kirdi. Uning bank sektoriga 9.1% aksiyadorlik kapitalida 6.73% kreditlash boyicha 12.24%, depozitlarda 8,06% va investitsiyalarda 9.26% ulushi bor.

**Bo'sh pul mablag'lari, pul resurslari zarur bo'lgan sohalarga bank tizimi
orqali oqib o'tadi**



2.1.1.-rasm

2.1.1-jadval

“Mikrokreditbank” OATB tahliliy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2014 yil chorak	2013 yil	2012 yil	2011 yil
Jami aktivlar sof mln sumda	1728.6	1577	1419.3	961.6
O'z kapitali mln so'mda	178.8	156	151.9	76.3
Ssudalar va lizinglar mln sumda	1290.1	1261.3	1009.5	599.4
O'z mablag'lari aktivlar, foizda	10.34	9.89	10.70	7.93
Joriy likvitlik koeffisienti, foizda	51.96	52.12	70.99	66.12

Manba: “Mikrokreditbank” ma'lumotlari asosida tayyorlandi,

2.1.2-jadval

Bank operatsiyalari tahlili (ming so'm)

T /r	Ko'rsat- kichlar	2014 yil		2015 yil		O'zgarishi	
		summa	%	Summa	%	summa	%
	Aktiv operatsiyalar	3826574809	51.91	4815692336	51.8	989117527	125.85
	Passiv operatsiyalar	3486043401	47.29	4382977580	47.2	896934179	125.73
	Vositachilik haqi va ko'rsatilgan xizmatlar	58799432	0.80	83979141	0.90	25179709	142.82
	Jami	7371417642	100	9282649	100	1911231415	125.93

Manba: "Mikrokreditbank" ma'lumotlari asosida tayyorlandi,

2.1.3-jadval

"Mikrokreditbank" operatsiyalari tahlili (ming so'm)

	Ko'rsatkichlar	2014 yil		2015 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
	Aktiv operatsiyalar	4815692336	51.88	6035463567	51.8	1219761231	125.3
	Passiv operatsiyalar	4382977580	47.22	5488628921	47.2	1105651341	125.2
	Vositachilik haqi va ko'rsatilgan xizmatlar	83979141	0.90	123478897	1.0	39499756	147.0
	Jami	9282649	100	1164756138 5	100	2364912328	125.4

Manba: "Mikrokreditbank" ma'lumotlari asosida tayyorlandi,

Bank operatsiyalarini tahlil qilish jarayonida bankning aktiv operatsiyalari 2014 yilga nisbatan 2015 yilda 25,85% ga, ya'ni 989117527 m/so'mga, 2014 yilga nisbatan 2015 yilga 25,33%ga ya'ni 1219761231 m/so'mga ortganligini ko'rishmiz mumkin. Passiv operatsiyalar ham yildan yilga bajarilganligini ko'rishimiz mumkin. 2015 yilga nisbatan 2014 yilga bankning passiv operatsiyalari 896934179 m/so'mga, 2013 yilga esa 1105651341 m/so'mga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Vositachilik va ko'rsatilgan xizmatlar 2012 yilga nisbatan 2014 yilda 25179709 m/so'mga ko'paygan, 2015 yilda esa 47.04 %ga ya'ni 39499756 m/so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Moliyaviy inqiroz davom etayotgan bir paytda bank xizmatlarini ko'paytirish, bank kapitalini oshirib boorish va bankga bo'lgan ishonchni ta'minlash muhim hisoblanadi. Davlatimizning iqtisodiy salohiyatini va moliyaviy barqarorligin ta'minlash bevosita tijorat banklari bilan chambarchas bog'liq.

2.1.6-jadval

Bank passiv operatsiyalari tahlili (ming so'm)

	Ko'rsatkichlar	2014 yil		2015 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
	Davlat korxona, tashkilot va muassasalarning talab qilib olingan saqlanadigan depozitlari	3290143400	75.07	409341004	67.81	802197604	124.3
	Yakka tartibdagi tadbirkorlikning talab qilib olingan saqlanadigan depozitlari	10008943300	23.02	1800349588	29.83	791406288	178.4
	Jismoniy shaxslarning talab qilib olingan saqlanadigan depozitlari	83890880	1.91	142762975	2.37	5887295	170.1
	Jami:	43829775	100	60354535	100	16524759	137.7

		80		67		87	
--	--	-----------	--	-----------	--	-----------	--

Manba: “Mikrokreditbank” ma`lumotlari asosida tayyorlandi,

Biz yuqoridagi jadvalni ya’ni “Mikrokreditbank” Buxoro viloyati filialining passiv operatsiyalarini tahlil qilish jarayonda davlat, korxona muassasalarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari 2014 yilda 3290143400 m/so’mni tashkil qilgan bo’lsa 2015 yilda 409341004 m/so’mni tashkil etgan. 2014 yilga nisbatan 2015 yilga 124,3 %ga ko’paygan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari 2012 yilga nisbatan 2013 yilga 202010270 m/so’mga ko’payganligini, 2013 yilga nisbatan 2014 yilga 791406288 so’mga oshganligini ko’rish mumkin. Jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari 2012 yilda 50768331 m/so’mni, 2013 yilda 83890880 so’mni tashkil etib, 2012 yilga nisbatan 2013 yilga 33122549 m/so’mga ko’paygan. 2015 yilda jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari 142762975 so’mni tashkil etgan. 2014 yilga nisbatan 2015 yilda 78872095 m/so’mga ko’paygan. “Mikrokreditbank” Buxoro viloyati passiv operatsiyalarining jami 2013-yilda 3486043401 m/so’mni, 2014 yilda 4382977580 m/so’mni tashkil etgan.

2.1.7-jadval

“Mikrokreditbank” operatsiyalari tahlili (ming so’m)

	Ko’rsatkic hlar	2012 yil		2013 yil		O’zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
1	Kassa orqali operatsiyalar	687748179	92.85	784847971	92.3	97099792	114.2
	Pul almashtirish shaxobchalari operatsiyalar	52997015	7.15	64799510	7.63	11802495	112.2
	Bankamatlar orqali operatsiyalar	-	-	-	-	-	-
	Jami	740745194	100	849647481	100	108902287	14.7

Manba: “Mikrokreditbank” ma`lumotlari asosida tayyorlandi,

2.1.8-jadval

Korxona operatsiyalari tahlili (ming so'm)

T/r	Ko'rsatkichlar	2014yil		2015 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
1	Kassa orqali operatsiyalar	784847971	92.37	1160947668	94.51	3760996	147.92
2	Pul almashtirish shaxobchalari operatsiyalar	64799510	7.63	67434309	5.49	2634799	104.07
3	Bankamatlar orqali operatsiyalar	-	-	-	-	-	-
	Jami	849647481	100	1228381977	100	378734496	144.58

Manba: "Mikrokreditbank" ma'lumotlari asosida tayyorlandi,

Yuqoridagi Jadvalni ya'ni "Mikrokreditbank" Buxoro viloyati filialining kassa operatsiyalarini tahlil qilish jarayonida quyidagilarni aniqladik. Kassa orqali bo'lgan operatsiyalar 2012 yilga nisbatan 2013 yilga 14,2% ga o'sganligi bilishimiz mumkin. 2015 yilga kelib ham 47,92% ga ortgan. Pul almashtirish orqali shoxobchalari orqali operatsiyalar deyarli 2011-2013 yillarda, tildan yilga o'sganligi quyidagilardan ko'rishimiz mumkin. 2012 yilda pul almashtirish shoxobchalari orqali operatsiyalar 52997015 m/so'mga, 2013 yilga 64799510 m/so'mga bajarilgan. 2014 yilga nisbatan 2015 yilga ko'p bajarilganini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda naqd pulning banklarga to'liq kelib tushmasligi natijasida banklarda naqd pul to'shish muammosi mavjud. Bank xizmatlarining yangi turlaridan biri plastic kartochkalar hisoblanib kelgusida shu xizmat turini rivojlantirish Markaziy bank pul kredit siyosatini qo'llab quvvatlash maqsadida plastic kartochkalarni keng miqyosda targ'ib etish muhim hisoblanadi. Lekin chekka tumandagi banklarda bankamot orqali operatsiyalar deyarli past darajada ekanligini yuqorida jadvallardan ko'rishimiz mumkin.

2.1.9-jadval

Bank aktiv operatsiyalari tahlili (ming so'm)

T/r	Ko'rsat kichlar	2014 yil		2015 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
1	Naqd pullar	584847971	95.46	760947668	94.28	176099697	130.1
2	Inkassa pullar	1142380	0.19	1186676	0.15	44296	103.8
3	Boshqa aktivlar	26652977	4.35	44995647	5.57	18342670	168.8
	Jami	612643328	100	807129991	100	194486663	131.7

Manba: "Mikrokreditbank" ma'lumotlari asosida tayyorlandi,

Moliyaviy inqiroz davom etayotgan bir paytda O'zbekistonda bank tizimini qo'llab quvvatlash maqsadida davlat tomonidan olib borilayotgan banklarni qo'llab quvvatlash, ularni to'lovlilik qobiliyatini oshirish davlatni qo'llab quvvatlashishi natijasida ortib bormoqda. Biz o'rganayotgan bank "Mikrokreditbank" Buxoro viloyati filali misolida bankning 2012 -2015 yillardagi faoliyatini o'rganganimizda bankning aktiv operatsiyalarini tahlil qilish jarayonida biz bankning naq pul tushumlari 2013 yilga nisbatan 2014 yilda 20,65 %ga ya'ni 1000997792 m/so'mga, 2015 yilda 30,1% ya'ni 176099697 m/so'mga ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Inkassa qilingan pul tushumlari 2012 yilga nisbatan 2013 yilda 23,62% ga 32010 yilda 3,88 % ga ko'paygan boshqa aktivlar esa 2014 yilga nisbatan 2013 yilda 4396198 m/so'mga 2014 yilga nisbatan 2015 yilga 18344670 m/so'm ko'paygan. "Mikrokreditbank" Buxoro viloyati filialining quyidagi aktiv operatsiyalarining jami 2013 yilda 507929041 m/so'mni tashkil etgan 2014 yilda 612643328 so'mni 2015 yilda 807129991 so'mni tashkil etgan bo'lib ular orasidagi o'sish sur'ati 2013 yilga nisbatan 2014 yilda

104714287 m/so`mga 2014 yilga nisbatan 2015 yilga 194486663 so`mga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

2.2. BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA KREDIT SALOHIYATI VA KREDIT BERISH TARTIBI TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarda kredit berish tijorat banlari tomonidan "Banklar va banklar faoliyatini to'g'risida"gi qonun asosida boshqa meyoriy hujjatlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Kreditlar O'zbekiston Respublikasi. Ning "Korxonalar to'g'risida"gi qonunida asosan kredit uz kapitali va mustaqil balansiga yuridik shaxs huquqiga mustaqil xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarga beriladi. Tijorat banklari xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarga ularning mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar shartnoma asosida qisqa va uzoq muddatli kreditlar beriladi. kredit mijozning hisob-kitob varag'i joylashgan bankda beriladi. Zarar ko'rib ishlaydigan nolikvid balansga ega bo'lgan xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarda kredit berilmaydi. Ilgari berilgan ssudalar esa belgilangan tartibda nobarqarorlik xo'jasizlik va zararlarni qoplash uchun foydalanishga yo'l qoymaydi. Kreditlar muddatiga ko'ra qisqa muddatli, o'ratmuddatli va uzoq muddatli turlarga bo'linadi.

Qisqa muddatli kredit amal qilish muddati 12oydan oshmaydigan ssuda bolib uning muddatining uzaytirilishi kreditlanayotgan tadbirlarni o'tkazish muddati ularniung qoplanishi va boshqa shartlardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qisqa muddatli ssudalar kreditlarning boshqa turlariga nisbatan likvidliroq hisoblanadi.

- O'rat muddatli 1 yildan 3-5 yilgacha beriladi

- Uzoq muddatli kreditlar 3-5yildan ortiq muddatga beriladi

Kreditlar bir necha tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

1. Kreditning muddatliligi
2. Kreditning qaytarilishligi
3. Kreditning ta'minlanganligi
4. Kreditning to'lovliligi
5. Kreditning maqsadliligi

Kredit iqtisodiy munosabatning belgilangan tizimi sifatida boshqa pul munosabatlaridan farq qiladi. Ya'ni pulning xarajati qaytarib berish sharti bilan aamlga oshiriladi.

Kreditning keying tamoyili muddatlilik bo'li u qaytarishlilik tamoyili bilan uzviy bog'liq holda bo'ladi. Kreditlarning muddatlilik 2 tomonlam xarakterga ega. Birinchidan kreditning mohiyati vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'larning qayatrishigina bildirib qolmay balki bu qaytarilishni aniq muddatini belgilashni taqozo etadi. Kreditning muddati bir tomondan foydalanishga berilayotgan kredit resurslarini bo'sh turish muddati bilan belgilansa, ikkinchi tomondan qarz oluvchining mablag'larga bo'lgan vaqtinchalik ehtiyojlarning muddatiga bog'liq. Krditlash muddatlilogining bu ikki tomonlama xarakterini nisbatga olinganda vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'larning to'liq va belgilangan muddatga qaytarilishini ta'minlash mumkin. Kreditning muddatliligiga rioya qilish banklar uchun ham qarz olubvhilar uchun ham, muhim ahmiytaga ega. Buning hisobiga bank kredut resurslarining aylanishini jadallashtirsalar va ulardan oqilona foydalanishga erishsalar xo'jalik o'z daromoadlarini ko'paytirish va o'z vaqariz mablag'laridab foydalnish samarasini oshirishlari mumkin. Kredit muddatini uzaytirish aksariyat hollarda bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Kredit mudsdati qarz olingan mablag'karni qaysi davrgacha foydalan ishini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qaytarilishi tamoyili kreditning mohiyatini ifodalaydi. Bank tomonidan mijozlarga beriladigan har bir so'm pul mablag'lari bankga qaytarilishi lozim. Qayatrib berishni iqtisodiy asosi sifatida mablag'larning uzviy doiraviy aylanishi hisoblanadi. Qayatrish tamoyilining shunday muhim xususiyati borki, kreditni boshqa Tovar-pul munosabatlarning iqtisodiy kategoriyalridan farqi bo'lagan iqtisodiy kategoriya sifatida ajralib turadi.

Kreditni keying tamoyili-kreditning ta'minlanganligidir. Bunda ssudaning ta'minlanganligi kredit berilishga asosan qarz oluvchining mulki moddiy boyliklar zaxiralari ko'chmas mulk yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu o'z navbatida kreditni o'z muddatiga qaytarilishiga kafolat berilishini ta'minlaydi. Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish

zaxirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy boyliklarni ta'minlah uchun beriladi.

Bu tamoyil asosan korxonalarga berilgan ssudalar yoki tomonlar majburiyatlari bilan real ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi da banklar faoliyatining xalqaro banklar faoliyatining xalqaro bank amaliyotiga yaqinlashib borayotgan sharoitida kreditning ta'minlanganligi sifatida Tovar moddiy boylik va xarajatlardan tashqari garovi, kafolat va kafillik kabi shakllari ham amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Ssudaning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun kredit shartnomasiga ko'ra qarz oluvchi garovga ma'lum qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni qoyib rasmiylashtiradi. Agr kreditni oluvchi kreditni o'z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralari ko'riladi.

Kreditni yana bir tamoyili haq to'lashlilik. Bunda shartnomaga ko'ra kredit oluvchi korxona o'z ehtiyoji uchun kreditga olingan pul mablag'laridan vaqtinva foydalanganligi uchun bankka belgilangan haqni to'lashi lozim. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan o'z xarajatlarini qoplaydilar.

Kreditlash ob'ekti-bu qarzga olingan summa va uning qaysi obekt Tovar moddiy boyliklar xarajtlar va hokazoga yo'naltirilganligini anglatadi.

Kreditlash sub'ektlariga ya'ni qarz oluvchi bo'lib mulkchilik turidan qat'iy nazar bank ishonchini qozongan, ma'lum moddiy va huquqiy kafolatlarga ega foiz to'lash va kreditni o'z vaqtida qayatrishga rozi bo'lgan sub'ektlar bo'lishi mumkin.

Jahon amaliyotida bank kreditlarini yagona umumlashtirilkgan tasnifi yo'q. chunki kreditlarni turli shakllari har bir mamlakatni iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning urf-odatlariga, aholi orasida ssudalrni berish va qaytarish tarixan shakllangan. Usullarga bog'liq bo'ladi. Bank kredit operatsiyalrini tasniflash mezonlari:

1. Bank kreditlarini qarz oluvchilarning guruhlari boyicha tasniflanishi mumkin: bank kreditlarini oluvchilari bo'lib hukumat, boshqa banklar, xo'jalik sub'ektlari, moliyaviy tashkilotlar va aholi hisoblanadi.

2. Kredit maqsadi yoki qaysi sohaga yo'naltirilishi boyicha sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo institsion, iste'mol va boshqa kreditlarga bo'linadi.

Bank kreditlari ishlatilishi sohasi boyicha asosiy kapitalni moliyalashtirish uchun yoki aylanma kapitalni moliyalash uchun beriladi.

3. Hajmi boyicha kreditlar katta, o'rat va kichik guruhlariga bo'linadi. Lekin xalqaro amaliyotda bu kreditlarni yagona o'lchov mezonini yo'q. XVF, YTTBning nuqtai nazaridan 10000 AQSH dollargacha bo'lgan summadagi kreditlar kichik kreditlarga kiradi.

4. Qaytarilish muddati boyicha kreditlar talab qilinguncha va muddatli bo'ladi. Muddatli kreditlar qisqa va uzoq muddatli bo'ladi. Ssudalarni bum mezon boyicha turli mamlakatlarda farqlanadi. Aksariyat banklar qisqa va uzoq muddatli kredit berish bilan shug'ullanadi.

5. Ta'minlanganligi boyicha ta'minlangan va ta'minlanmagan kreditlarga bo'linadi.

Ta'minlangan kreditlar ta'minlanganlik harakatiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- Garovli
- Kafolatlangan
- Sug'urtalanganlik
- Boshqalar

Ta'minlanmagan kreditlar ishonchli (blankali) deb ham nomlanadi.

Ta'minlanmagan kreditlar qarz oluvchining obro'sini va uning daromadini darajasini baholashdan keyingina beriladi.

Kreditning sifati past bo'lganda ham u ta'minlanmagan kredit deb yuritiladi. Bunda kreditlar boyicha kreditning qaytmaslik riski yuqori bo'ladi.

6. Berilish usullari boyicha kreditlar qoplash uchun va to'lov kreditlarga bo'linadi. Birinchi holatda kredit qarz oluvchining hisob varag'iga xarajatlarini qoplash o'tkaziladi. Bunda avans mablag'larini o'tkazish ham, naarda tutiladi. Ikkinchi holatda bank ssudasi bevosita naqd puliz hisob-kitoblarga hisovhujjatlarini berish uchun beriladi. Shu bilan birga bir martalik kreditlar ham beriladi. Ya'ni shartnomada belgilangan muddat va summada taqdim etiladi biroq ko'pchilik mamlakatlarda kredit liniyalari keng qo'llaniladi.

7. Bank kreditlarini qayatrish tartibi boyicha 2 guruhga ajratish mumkin. 1-guruhga bir vaqtda qaytariladigan kreditlar, 2-guruhga bir necha muddatda bo'lib-bo'lib to'lanadigan kreditlar kiradi.

Odatda yuridik shaxslar va aholiga xorijiy ehtiyojlarni qoplash uchun naqd pul mablag'lari kerak bo'lganda beriladigan qisqa muddatli kreditlar bir vaqtda qaytariladigan kreditlar kiradi.

Bir necha muddatda qayatriladigan kreditlar bu ikki yoki undan ortiq to'lovlar bilan amalga oshiriladigan ssudalar hisoblanadi. Bu guruhga turli xil kreditlar: tijorat, ochiq schot boyicha, veksel, lizing, factoring, farfeytingva boshqalar kiradi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bir necha muddatda qaytariladigan kreditlar yuridik va jismoniy shaxslaraga tovarlar beriladigan o'rta va uzoq muddatli kreditlashda qo'llaniladi.

Jahon moliya bozorlarida investitsiya loyihalrini amalga oshirish uchun kreditlar bir necha muddatlarda qaytarilishlilik sharti bilan beriladi.

8. Foiz stavkalarining turlari boyicha bank kreditlarini 2 guruhga bo'lish mumkin; qat'iy foizlardagi kreditlarga va suzuvchi foiz stavkalaridagi kreditlarga.

Ssudalar kreditlashning butun muddatiga beriladigan va qayta ko'rib chiqilmaydigan qat'iy foiz stavkalri shartlarida berilishi mumkin.

Qarz oluvchi bu holatda foiz stavkalari bozorlarida konyuktura o'zgarishiga qaramasdan kreditdan foydalanganligi uchun o'zgarmas kelishilgan stavkada foiz to'laydi. Bu ham kreditorga, ham qarz oluvchiga qulay, chunki ikkla tomon ham berilgan kreditdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan o'z daromad va xarajtlarini hisoblab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qat'iy foiz stavkalari odatda qisqa muddatli kreditlashda qo'llaniladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda kreditlarni berishda qat'iy va suzib yuruvchi foiz stavkalrining har ikkalasi ham keng qo'llanilmoqda.

Suzib yuruvchi fopiz stavkalri-bu kredit bozorlarda vujudga keladigan holatlarga bog'liq bo'lgan doimiy o'zgaradigan foizn stavkalaridir.

9. Kredit qaysi valyutada berilishiga qarab ham guruhlarga bo'linadi. Odatda tijorat banklari kreditlarni milliy valyutada yoki chet el valyutasida berilishi

mumkin. O'zbekistonda milliy valyuta va chet el valyutasidagi kreditlar ko'p qo'llanilmoqda.

10. Kreditlar soni boyicha kreditlar quyidagi guruhlariga bo'linishi mumkin:

- Yagona bank beradigan kreditlar
- Sindikatlashgan kreditlar
- Parallel kreditlar

Amaliyotda bir bank tomonidan beriladigan ssudala keng tarqalgan.

Sindikatlashgan kreditlar-birlashgan ikki yoki undan ortiq kreditorlar birqarzdorga kredit taqdim etadi.

Amaliyotda ikki yoki undan ortiq banklar qarz oluvchiga parallel kreditlar berish holatlarda ham bo'lishi mumkin. Sindikatlashgan kreditdan farqli o'laroq bu holatda mijoz bilan har bir bank alohida ish olib boradi. So'ngra esa umumiy kredit shartnomasini tuzadilar.

2.2.1-jadval

Bankning kredit operatsiyalari tahlili (ming so'm)

T/r	Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		O'zgarishi	
		summa	%	Summma	%	summa	%
1	Berilgan qisqa muddatli kreditlar	948891004	31.71	1047198400	26.91	98307396	110.36
2	Berilgan o'rta muddatli kreditlar	-	-	-	-	-	-
3	Berilgan uzoq muddatli kreditlar	2043718004	68.29	2843972174	73.09	800254170	139.16
	Jami	2992609008	100	3891170574	100	9898561566	130.03

2.2.2-jadval

Bankning kredit operatsiyalari tahlili (ming so'm)

/r	Ko'rsatkic hlar	2013 yil		2014 yil		O'zgarishi	
		summa	%	Summa	%	summa	%
1	Berilgan qisqa muddatli kreditlar	1047198400	26.9	1895016080	36.14	847817680	180.96
2	Berilgan o'rta muddatli kreditlar	-	-	-	-	-	-
3	Berilgan uzoq muddatli kreditlar	2843972174	73.1	3347817	63.86	5038452	117.72
	Jami	3891170574	100	5242833480	100	1351662906	134.74

Manba: "Mikrokreditbank" ma'lumotlari asosida tayyorlandi,

Bankning kredit operatsiyalari 2012 yilga nisbatan 2013 yilga berilgan qisqa muddatli kreditlar nisbatan 98307396 so'mga o'sganligi, 2014 yilga kelib ham berilgan qisqa muddatli kreditlar 80.96% ga ya'ni 847817680so'mga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. O'rat muddatli kreditlar ham xuddi shunday yildan yilga bajarilayotganligini ko'rish mumkin. Jadvaldan berilgan uzoq muddatli kreditlar bank kresitlarini katta qismini tashkil etgan. 2011 yilda 64.64%ni tashkil etib berilgan uzoq muddatli kreditlar 2012 yilga 72.49 %ni, 2013 yilga kelib 63.28%ni tashkil etgan. Bu esa banklarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash natijasida bank faoliyati yildan yilga kengayib bormoqda. "O'zsanoatqurilishbank" Buxoro viloyatining jami berilgan kreditlari 2012 yilda 3021309008 so'm, 2013 yilda 3923170574 so'mni tashkil etgan. 2012 yilga nisbatan 2013 yilda bank kredit resurslari 901861556 so'mga ko'paygan. 2014 yilga 5290833 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilga nisbatan 2014 yilda 1367662906 so'mga ko'paygan.

III.BOB. BANKNING INVESTITSION SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

3.1. Bank resurslarini tadqiq qilish va ularni moliyalashda investitsiyalar rolini kuchaytirish

Mamlakatimiz prezidenti O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruzalarida “ bugun biz yashayotgan globallashuv va tobora kuchayib borayotgan raqobat asrida faqat chuqur islohotlar va modernizatsiya yo'lidan tinimsiz va qatiyat bilan rivojlanib boorish natijasida o'z oldimizga qoygan istiqbolli maqsadlarga-taraqqiy topgan, farovon yashayotgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot darajasini ta'minlashga erisha olamiz” deb ta'kidlagan edilar.

Ushbu maqsad yo'lida tijorat banklari roli va ahamiyatini yuksak baholagan holda, mamlakatimiz rahbari oldimizga tijorat bankalarining investitsiyaviy loyihalarini moliyaklashtirishdagi ishtiropkini yanada kuchaytirish, tavakkalchiliklarni baholash va ekspertiza qilish tizimini takomillashtirish orqali kredit portfeli sifatini yaxshilash va doimiy o'sishini ta'minlash, kreditlar boyicha muomila qarzdorlikning shakllanishiga yo'l qoymaslik yuzasidan oldindan ogohlantirish choralari ko'rish boyicha vazifalar va aniq marralarini belgilab berdilar. Tijorat banklari passiv operatsiyaalrining asosan 4 ta shakli mavjud.

1. Tijorat banklari qimatbaho qog'ozlarini muomalag chiqarish yo'li bilan resurslar yig'ish
2. Bank foydasi hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondler summasini oshirish
3. Boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb qilish
4. Deposit operatsiyalarini amalga oshirish

Tijorat banklarining resurslari bankning o'z mablag'lari jalb qilingan va emitentlashgan mablag'lar hisobidan shakllanadi.

Banklarning ustav kapitali so'mmasi bank ustavida ko'rsatiladi va ishini boshlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

Banklarning tashkil qilishning shakllariga qarab bankning ustav kapitali ham har xil tashkil qilinadi. Agar bank aksiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil bo'lsa, ustav kapitali summasi qonun yo'li bilan chegaralanmaydi. Banklarning barqaror faoliyatini ta'minlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab beriladi. Muddatli qoyilmalarning terlaridan biri-mablag'larni jalb qilishning aniq qayd etilgan vaqtda mo'ljallangan deposit sertifikatlari hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarda aholi bo'sh pul mablag'larini banklarga jalb etishni jonlashtirish maqsadida banklarga turli imtiyozlar tizimi qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2000 yil 19-maydagi 195-sonli qarorida "tijorat banklarining daromad solig'ini hisoblab chiqishda soliq solinadigan baza jismoniy shaxslarning muddarli omonatlarining ko'paygan summasiga kamaytirilishi belgilab qoyilgan. Bunda, soliqlar to'lashdan bo'shaydigan mablag'lar omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini oshirishga maqsadli yo'naltirilishi shart".

3.1.1-jadval

Bank resurslari tarkibi

	Ko'rsatkichlar	Bank № 1	Bank № 2
.	O'z mablag'lari-jami jumladan	17.4	7.2
.1.	Ustav fondi	3.9	1.3
.2.	Boshqa fondler	9.4	3.2
.3.	Joriy yildagi taqsimlanmagan foyda	4.1	2.7
.	Jalb qilingan mablag'lar jami jumladan	82.6	92.8
.1.	Muddatli depozitlar	76.9	70.1
	Muddatsiz dipozitlar	4.3	4.3

.2.			
.3.	Aholi qo'yilmalar	0.3	0.4
.4.	Sertifikatlar vekselar	1.1	-
.5.	Banklararo kreditlar	-	18.0

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki alohida tijorat banklarining resurslari, strukturasi sezilarli farq qiladi.

1-bankning o'z mablag'lari 2-banknidan 2 marta ortiq. Birinchi bankda ustav fondi 3,9 %ni, o'z mablag'lari summasining 22,3%ni tashkil etgan. 2-bankda ustav fondi 1,3%ni ya'ni o'z mablag'lar summasini 18%ni tashkil etgan. 1-bank esa aksariyat hollarda mijozlarining resurslari bilan ishlagan.

Bu o'zgarishlarning bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular :

- Banklararo kredit bozorida banklarning faol ishtirok etishini ta'minlanishi va bu o'z navbatida kredit riskini kamaytirganligini:

